

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI KOMPETENSIYAVIY  
YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TASHKIL  
ETISH**

**Omonova Dildora Negmurod qizi**

*Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasida tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada kompetensiyaning mazmun mohiyati, olimlarning kompetensiyaga haqidagi turli xil qarashlari hamda bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili ona tili va o'qish savodxonligi darslarida berilgan kompetensiya turlari va ma'nolari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, psixologik kompetentlik, kretiv kompetentlik, og'zaki nutq, yozma nutq.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается значение компетентности, различные взгляды ученых на компетентность, а также виды и значения компетентности, данные сегодня на уроках родного языка и читательской грамотности в начальной школе.*

**Ключевые слова:** *языковая компетентность, речевая компетентность, психологическая компетентность, творческая компетентность, устная речь, письменная речь.*

**Annotation:** *The article discusses the meaning of competence, the different views of scientists on competence, and the types and meanings of competence given today in the classes of mother tongue and reading literacy in elementary school.*

**Key words:** *linguistic competence, speech competence, psychological competence, creative competence, oral speech, written speech.*

Dunyo miqyosida ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ulardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda darslarni innovatsion va axbarot kommunikatsiya texnologiyalar asosida tashkil etish orqali kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dunyo olimlari diqqat markazida turgan masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda bugungi kun o'quvchilariga alohida e'tibor qaratilib, ularni sog'lom, aqliy rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, iqtidori va intellekti yuqori, hayotiy nuqtayi nazarga ega, vatanga mehr muhabbatli qilib tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish, ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab quvvatlash ishlari olib borilmoqda. Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalar va o'quv jarayonini interaktiv boshqarish

mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bugungi kunda darsliklarda har birta matndan so'ng berilgan audio matnlar buning yorqin misolidir.


Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi nashr qilingan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari, boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mehnat, tinimsiz izlanishda borishni talab qiladi. O'quvchiga tayyor qoidalarni yodlatib emas, balki ijodiy fikrlash orqali uning mustaqil fikrlashga tayyorlab borishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning axbarot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchi hamda o'quvchilarning zamonaviy axbarot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish savodxonligini oshirish o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### ASOSIY QISM

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darsligini o'zaro integratsiya qilgan holda yagona fan sifatida o'qitilishi o'quvchilarning kitobdan ma'lumotlarni oson topish, diqqatini bir joyga jamlash, berilgan matnlarni tanqidiy baholash hamda ularni mustaqil o'zi davom ettirish imkonini beradi. Shuningdek dars jarayonlarini bevosita axbarot –kommunikatsiyalar, turli multimediali vositalar yordamida olib borish o'quvchini dars jarayoniga yanada qiziqtiradi. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tish nafaqat ona tili va o'qish savodxonligi darslarida, balki boshqa fanlar uchun ham tegishli bilimga ega bo'lishni ifodalaydi.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalarning talab darajasida joriy etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim motivatsiyasini kuchaytirish, o'z ustida ishlash, mustaqil o'rganish, fikrlash, xulosa chiqarishga o'rgatish, o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish kognitiv (bilish, tushunish) va kommunikativ (idrok etish va uzatish) bunda o'quvchilar o'quv jarayoniga jalb qilinadi. Ular tushunish va fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi, ularda bilimni kundalik hayotda qo'llash qobiliyati rivojlanadi. Boshlang'ich sinf darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish uchun o'qituvchi o'z oldiga maqsad qo'yib olishi lozim. Darslarni kimga?, qanday o'taman?, nimani o'taman?, qachon o'taman?, nimadan foydalanaman?, nimaga erishaman? Kabi savollarga javobini bilib, darsga puxta tayyorlanishi lozim. O'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda axbarot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish uchun ta'limda innovatsion texnologiyalar quydagi tamoyillarga tayanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:



Kompetensiya so'zi lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, erishaman, muvofiqman, mos kelaman degan ma'nolarni anglatadi. Shu bilan birga kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasi ham kompetensiya sanaladi. Kompetensiya so'zi muayyan vazifani bajarishi uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan kompetentlik va huquq ma'nosida ham qo'llaniladi.

**Kompetensiya**- davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchining muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiya shaxsning murakkab, ta'limiy tuzulishi bo'lib, u o'zida shaxsning intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsad uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshib borishini ta'minlaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kompetensiya shaxsning yuqori xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi.

Respublikamizda ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quydagi tayanch kompetensiyalar belgilab olindi:

Kommunikativ kompetensiya-o'quvchilarning o'zaro muloqot almashunivini yo'lga qo'yadigan, jamiyatda o'rnini his etadigan va fikrini teran bayon etadigan qobiliyatini ko'rsatadi.

Axbarotlar bilan ishlash kompetensiyasi-axbarotlarni qabul qilish, saqlash va uzatish kabi asosiy amaliyotlarning texnik, ma'naviy va xavfsizlik qoidalarini bilish ko'nikmalarini anglatadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi-o'quvchi o'rgangan bilimlarni mustahkamlash, ularga asoslanib boshqa bilimlarni qidirish va o'zlashtirish orqali o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini bildiradi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi-o'z fuqarolik huquqi, burchi va vazifalarini biluvchi, o'quvchi kompetensiyadan iborat.

Milliy va umummadaniy kompetensiya-o'quvchining milliylik ruhiyatini rivojlanishi, umummadaniy qadryatlarning tarkib topishiga qaratilgan kompetensiya.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi-aniq fanlar bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirish va tadbqiq etish qobiliyatini bildiradi.

Ta'limda innovatsion dars o'tishda kompetensiyaning roli va ahamiyati quydagilarda ayon bo'ldi:

-kundalik hayotda ishtirok etishga tayyor bo'lgan yosh fuqarolarga ijtimoiy talabni aks ettirish;


-o'quvchining bilim olishdagi shaxsiy ma'nolarini ro'yobga chiqarish sharti, uning ta'limda begonalashuvi bartaraf etish vositasi bo'lishi mumkin;

-bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat usullarini maqsadli kompleks qo'llash uchun atrofdagi voqelikning real obektlarini belgilash;

-nazariy bilimlarni aniq muammolarni hal qilishda amaliy foydalanish bilan birlashtirish;

-ta'lim mazmunini barcha fanlar elementlari sifatida turli o'quv fanlari va ta'lim yo'nalishlari mazmunining bir qismi bo'lishi.

Kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni innovatsion texnologiyalar yordamida dars o'tilishi juda yuqori samara beradi. Yuqoridagi jadvalda innovatsion texnologiyalar yordamida dars o'tilishining afzalliklari keltirib o'tilgan.



**Xulosa va tavsiyalar:** O'quvchi va o'qituvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida darslarini tashkil etish juda yuqori samara beradi. Shuningdek innovatsion texnologiyalar yordamida dars olib borilishi o'quvchida hamda o'qituvchida fanni sifatini oshirish o'yicha o'zining yuqori samarasini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In *World science: problems and innovations* (pp. 213-215).
2. Omonova, D. (2022). LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 182-183.
3. Bakhtiyorovna, A. N., & Madina, O. Description of Non-Traditional Teaching Techniques Used in the Classes of the 3rd Class Native Language. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 269-274.
4. Ozodova, M. (2021). OSHLANG 'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
5. Ulug'bekovna, A. N., & Moxirovna, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 35-42.
6. Sayidova, R., & Toyirova, N. (2022). THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF POETRY IN THE NATIVE LANGUAGE AND READING COURSES. In *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 199-201).
7. Наврузова, М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. *Вопросы науки и образования*, (11 (95)), 109-111.
8. Davronov, D. (2019). *REVISITING VALUATION METHODS OF TECH COMPANIES* (Doctoral dissertation, Central European University).
9. Davronov, D. I. (2021). Methodological Possibilities of using the Media Education System in the Educational Process. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 32-37.
10. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.
11. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 434-441.
12. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

13. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
14. Kamroev, A. (2019). STUDENTS' CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 285-296.
15. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. *Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи*, (2), 23-26.
16. Adizov, B. R., & Khamroev, A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. *Ilmiy xabarnoma*, 69.
17. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.
18. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 434-441.
19. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 251-257.
20. Tilavova, M., & Erkinova, N. (2022). O 'QUVCHILARINI MA'NAVIY BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 1(B4), 130-131.
21. Tilavova, M., & Erkinova, N. (2022). OQUVCHILAR NUTQINI OSTIRISHDA SHE'RIY MATNLARDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 1(B4), 127-129.
22. Tilavova, M. M., & Alimova, M. A. Q. (2021). TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO 'L MEHNATIDAN FOYDALANISH TALABLARI. *Scientific progress*, 2(7), 975-982.
23. Mukhamadovna, T. M. (2021). Challenges of Feminism and Gender Equalization. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
24. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
25. Muhammedovna, T. M. (2019). Qualification features of the teacher of "technology" and the technology of its development. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.
26. Тилавова, М. М. (2020). Гендерный подход на уроках технологии. In *European research: innovation in science, education and technology* (pp. 33-35).
27. Xalilova, M. F., & Niyazova, D. S. (2021). Ecological education of children in primary school. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 615-622.

28. Xalilova, F. M. (2021). TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA O 'QUVCHILAR TASAVVUR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH HAMDA RIVOJLANTIRISH. *Scientific progress*, 2(6), 1030-1037.
29. Xalilova, F. (2020). “СУВЎТЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ГУРУХЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ХУСУСИЙ МЕТОДЛАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 4(4).
30. Mamatkulovna, K. F., & Muxamedjonovna, G. S. (2022). *European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)*.
31. Хакимова, М. Х. (2017). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 101-102). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
32. Касимов, Ф. М., Касимова, М. М., & Хакимова, М. Х. (2016). Специфические принципы построения системы учебных задач. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (50-2), 58-62.
33. Hakimova, M. K. (2019). THEORITICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF THE NON-PROBLEMS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MATHEMATICAL THINKING IN PRESCHOOL AND INITIAL TRAINING. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 356-363.
34. Хакимова, М. Х. (2020). Проблемы обеспечения преемственности дошкольного и начального образования при формировании математических понятий у учащихся. In *European reseach: innovation in science, education and technology* (pp. 69-71).
35. Homitovna, H. M. (2020). A model of continuity in the formation of mathematical concepts in kindergarten and primary school pupils. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1756-1764.
36. Habiba, G. (2021). BIRINCHI SINF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH. *Scientific progress*, 2(7), 983-989.
37. G'aforovna, J. H. (2022). SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH. *БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(3), 1-4.
38. Хакимова, М. Х. (2017). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 101-102). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
39. Касимов, Ф. М., Касимова, М. М., & Хакимова, М. Х. (2016). Специфические принципы построения системы учебных задач. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (50-2), 58-62.
40. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.

41. Ismoilovich D. D. THEORETICAL FOUNDATIONS OF WORK ON TEXT ANALYSIS IN PRIMARY SCHOOL.

42. Ismoilovich D. D. Methodological Possibilities of Using Media Educational Technologies to Increase the Professional Activity of Future Primary School Teachers //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 141-145.

43. Laziz, Q. (2022, March). BOSHLANGICH SINIF MATEMATIKASIDA MIQDOR TUSHUNCHASINI ORGATISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.43. 38.112 Qayimov Laziz, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dispetcheri. In *Научно-практическая конференция*.

44. Mirzo o'g'li, Q. L. FORMATION OF READING SKILLS IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN.